

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева Теоретические основы лексической системы языка в рамках синтагматики и парадигматики.....	203
Z.V.Alimova Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida “Xud” so’zi va uning morfologik belgilari xususida	208
M.M.Asranova O‘zbek tilida siyosiy diskurs individualligini ta’minlovchi leksik va morfologik vositalar	213
O.M.Khudoyberdieva The significance of using idioms and collocations in english and uzbek dance terminology	218
G.S.Xolmurotova Tilshunoslikda terminologik tizimning aksiologik jihatlari.....	222
N.H.Sayfullayev, A.A.Mirzayeva Alisher Navoiyning “Nasoyim Ul-Muhabbat” asaridagi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tahlili	226
N.A.Abdullayeva Tozalikning kishi salomatligiga ta’siri haqidagi o‘zbek va ingliz xalq maqollarining semantik tahlili	229
M.T.Qodirova Biznes diskursini metonimik modellashtirish.....	233
D.N.Satimova Ingliz va o‘zbek tillarining ekzistensial va noekzistensial shakllari: substandart leksik birliklar	240
V.A.Tangriyev Paulo Koeloning “Alkimyogar” asarining inglizcha va o‘zbekcha tarjimalaridagi paralingvistik vositalar	247
V.A.Giyosova Murojaat birliklarida aksiologik modallik ifodasi	254
R.Kahramanova The values of morphological indicators of quantitative words in dialects recorded on ancient monuments.....	260
I.M.Ataboyev Ta’na-dashnom konseptining madaniyatlararo farqlari: Ingliz va boshqa tillarda foydalanishni qiyosiy o‘rganish	264
M.E.Qodirova O‘zbek va ingliz tillarida san’atga oid terminlarning klassifikatsiyasi	270



UO‘K: 351.87

MUROJAAT BIRLIKLARIDA AKSIOLOGIK MODALLIK IFODASI**ВЫРАЖЕНИЕ АКSIОЛОГИЧЕСКОЙ МОДАЛЬНОСТИ В ОБРАЩЕНИЯХ****EXPRESSION OF AXIOLOGICAL MODALITY IN APPEALS**

Giyosova Vasilaxon Avazxo qizi 
Rus filologiyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Bugungi kunda tilshunoslikda insonlar ongining aksiologik tabiati to‘g‘risidagi tadqiqotlar ko‘payib bormoqda, chunki baholash kognitiv jarayonlarning ajralmas qismi sifatida insonlarga xos bo‘lgan xatti-harakatlar va xususiyatlarning tavsifidir.

Eksperimental psixologiya xulosalariga ko‘ra, odamlar avtomatik ravishda “yaxshi” va “yomon”ni yoki ijtimoiy va ijtimoiy bo‘lmagan narsalar hamda hodisalarni baholaydilar. Baho ifodalashning o‘ziga xos lisoniy vositalari uni tilda ifodalash va tavsiflash usullariga bo‘lib. Maqolada bolalarga murojaat birliklaridagi aksiologik modallik munosabatlari rus va o‘zbek tillarida o‘ziga xos tarzda ifodalalanishi haqida fikr yuritilgan.

Аннотация

Сегодня в лингвистике появляется все больше исследований aksiologической природы человеческого сознания, поскольку оценка-это описание поведения и свойств, присущих людям, как неотъемлемой части познавательных процессов.

Экспериментальная психология пришла к выводу, что люди автоматически оценивают “хорошее” и “плохое” или социальные и несоциальные вещи и явления. Специфические языковые средства выражения оценки делятся на способы ее выражения и описания в языке. В статье рассматривается, как aksiologические модальные отношения в единицах обращения к детям по-своему выражены в русском и узбекском языках.

Abstract

Today, more and more studies of the axiological nature of human consciousness are appearing in linguistics, since assessment is a description of behavior and properties inherent in people as an integral part of cognitive processes.

Experimental psychology has concluded that people automatically evaluate “good” and “bad” or social and non-social things and phenomena. Specific linguistic means of expressing an assessment are divided into ways of expressing it and describing it in language. The article examines how axiological modal relations in units of addressing children are expressed in their own way in Russian and Uzbek languages.

Kalit so‘zlar: modallik, baho, subyektiv baholash, morfologik vositalar, leksik vositalar, munosabat.

Ключевые слова: модальность, оценка, субъективная оценка, морфологические средства, лексические средства, отношение.

Key words: modality, assessment, subjective assessment, morphological means, lexical means, attitude.

KIRISH

Tilshunoslikda modallik kategoriyasining fundamental lisoniy kategoriya sifatidagi mazmuni va uni shaklan ifodalovchi vositalar to‘g‘risidagi yakuniy xulosalar hozirgacha to‘liq hal etilmagan. Lingvistik modallik muammosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarning tobora ortib borayotganligi uning funksional mohiyatini, modal semantika xilma-xilligini, modallik ifodalovchi vositalarning tuzilishini o‘rganish bilan bog‘liq bir talay tadqiqotlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Bundan tashqari, ushbu hodisa shu paytgacha til tizimining sintaktik sathiga xos kategoriya sifatida qaralgan bo‘lsa, hozirda esa matn tarkibidagina shakllanib, oydinlashadigan kognitiv-diskursiv hodisa sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Modallikning ifoda imkoniyatlari juda keng, sababi bu hodisa tilning barcha sathlarida – fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarida, shuningdek, matnning har qanday turida o‘zini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI METODLAR

Tilshunoslikning hozirgi bosqichlarida modallikni universal sintaktik kategoriya sifatida o'rganish tildagi antropotsentrik omilni hisobga olishni va muloqot jarayoni uchun uning ishtirokchilari bo'lgan "inson" shaxsining barcha hatti-harakatlarini (og'zaki muloqot ishtirokchilarining emotsional holati, nutqning adresatga ta'sir etish usullarini) o'rganishni taqozo qiladi. Bu jarayonda aynan lisoniy shaxs dinamikasining dominantiga aylanadi, umumiy til birliklari asosida olamni aks ettirishning o'ziga xos tizimini shakllantiradi va natijada tilda bir tomondan obyektiv voqelik aks etadi, ikkinchi tomondan esa so'zlovchining subyektiv dunyosi va tasvirlanayotgan narsaga munosabati ham ifodalanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda «modallik» tushunchasining doirasi sezilarli darajada kengayib, mohiyatan propozitsiyaning mumkin bo'lgan barcha muhitini va kommunikativ modusni qamrab oladi. Chunki modallik so'zlashuv uslubini, bilishni, fikrlashni, baholashni va subyektiv baho kategoriyasini ham qamrab olishga intiladi.

O'z navbatida, F.R.Palmerning so'zlariga ko'ra, modallik tushunchasi noaniqligi sababli turlicha talqinlarga o'rin qoldiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, modallikning bir qancha turli xil ta'riflari berilgan. Oksford tilshunoslik lug'atida "MODAL" quyidagicha ta'rif keltiriladi: modallik – bu nutq harakatining turini yoki biror narsa aytilganda uning aniqlik darajasini qamrab oluvchi kategoriyadir.

O.S.Axmanovning "Tilshunoslik atamaları lug'ati"da modallik so'zlovchining gap mazmuniga munosabati va gap mazmunining voqelikka munosabati ma'nosiga ega bo'lgan konseptual kategoriyadir..., [u] turli grammatik va leksik vositalar bilan ifodalanadi, masalan, harakatning voqelikka munosabatini ifodalovchi fe'l shakllari va modal fe'llar bilan.

Modal reaksiyalar so'zlovchining ma'lum bir emotsional holati bilan bog'liq, shuning uchun emotsionallik modallikka kiradi (so'zlovchining "men"i orqali). Nutq predmetiga so'zlovchining emotsional munosabatini ifodalashning o'ziga xos shakli bo'lib, hissiy ifodani modallik toifasiga kiritish uchun obyektiv asoslar beradi.

Tadqiqotchi D.Boymatovning fikricha, modallik kategoriyasi tilshunoslikning doimiy ravishda o'rganib kelinayotgan hodisalaridan biridir. Ushbu hodisa shu paytgacha til tizimining sintaktik sathiga xos kategoriya sifatida qaralgan bo'lsa, hozirda esa matn tarkibidagina shakllanib, oydinlashadigan kognitiv-diskursiv hodisa sifatida o'rganilib kelinmoqda. Modallikning ifoda imkoniyatlari juda keng, sababi bu hodisa tilning barcha sathlarida – fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarida, shuningdek, matnning har qanday turida o'zini namoyon etadi.

Hozirda til birliklarida ifodalangan modallik insonlar o'rtasidagi nutqiy jarayon – kommunikatsiya uchun emotsional ifoda sifatida o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Kommunikatsiya jarayoni uchun modallik kategoriyasining ahamiyati qanchalik muhimligini badiiy asar personajlari nutqida va og'zaki nutq jarayonida qo'llanilgan murojaat birliklari misolida ko'rish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bolalarga oid murojaat birliklari ko'proq subyektiv munosabat ifodalash uchun ishlatiladi.

Modallik – munosabat ifodalovchi sifatida subyektiv va baholovchi xarakterga ega. Shu nuqtayi nazardan, "modallik yoki baholash" dixotomiyasi olib tashlanadi. Modallikning mohiyatini baholash munosabatlari sifatida tan olish mumkin.

Boshqacha aytganda, so'zlovchi o'z his-tuyg'ulari, munosabati, semantik ma'no va bahoni ifodalashi uchun til birliklarini tanlovi jarayonida u tanlagan birliklarga yuklangan emotsionallik, baholash, hissiyot obyektida ijobiy yoki salbiy modallikni qo'zg'atadi, so'zlovchining hissiy holati va bahosi tinglovchining aksiologik faolligini oshiradi.

Modallikni kommunikativ-pragmatik darajada tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, subyektiv modallikning bir turi bo'lgan aksiologik modallikning murojaat birliklari bilan ifodalanishi nutqda kommunikativ maqsad va rejalarni amalga oshishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, modallik so'zlovchining subyektiv bahosini ifodalaydi.

Tildagi modallik subyektiv ifodalanish xarakteriga ega, shuning uchun ham uni so'zlovchining subyektiv munosabati va fikrlarining grammatikalashtirilishi sifatida belgilash mumkin.

Tilshunos olim R.Qo'ng'urov fikricha, subyektiv baho, so'zlovchining obyektiv borliqqa va o'z nutqiga ijobiy yoki salbiy munosabatining ifodalanishidir. Modal munosabat tasdiq, inkor, gumonni ham bildirishi mumkin. U maxsus tekshirish obyekti sifatida qaraladi.

Rus tilshunosligida modallikning ikki turi ajratib ko'rsatiladi: obyektiv (ontologik) va subyektiv (persuaziv), ya'ni ishonarli (izoh bizniki). Obyektiv modallik – ma'lum bir vaziyat bilan bog'liq obyektiv xususiyatlarni aks ettiradi. Subyektiv modallik so'zlovchi tomonidan bahoni ifodalab, ifodalangan bahoning vaziyat bilan bog'liqlik darajasini ishonchli ko'rsatib beradi.

Subyektiv va obyektiv modallik insonning obyektiv olam bilan bog'liqligini, undagi barcha narsa va hodisalarga nisbatan ma'lum bir munosabat bildirish, ifodalash, umuman olganda, baholash uchun nutq jarayonida tilda mavjud qator birliklar vositasida ifodalanadi. Nutq jarayonining o'zi esa subyektiv va obyektiv baholashni talab etadi.

Taniqli olim Sh.Rahmatullayev so'zlovchining obyektiv borliqqa yoki o'z nutqiga o'zi tomonidan belgilanadigan salbiy yoki ijobiy munosabati grammatikada modallik kategoriyasi bilan yuritilishini aytadi.

R.Qo'ng'urovning ta'kidlashicha, hozirgi o'zbek tili grammatikalarida «subyektiv baho formalari» nomi bilan, asosan, ot va sifat tarkibida o'rganilib kelinayotgan *-gina, -choq, -cha, -chik, -loq, -jon* tipidagi formalar ham, odatda, so'zlovchining obyektiv borliqqa, o'z nutqiga bo'lgan modal munosabatlarini bildiradi.

R.Hadyatullaev, E.Qilichev, G.Qambarovlarning tadqiqotlarida o'zbek tilida subyektiv baho formalarining xususiyatlari va ma'nolariga e'tibor qaratilib, grammatik kategoriya sifatida asosan turli qo'shimchalar yordamida ifodalanishi ta'kidlanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'lumki, murojaat ifodalovchi birliklar apellyativ vazifa bajarishdan tashqari, pragmatik, poetik vazifa va emotsional baho ifodalash vazifalarini ham bajaradi. Bolalarga oid murojaat ifodalovchi birliklardan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, subyektiv baho, ya'ni aksiologik modallikni ifoda etuvchi vosita sifatida ham foydalaniladi.

“Baho” tushunchasi milliylik va ekspressivlik ichida namoyon bo'luvchi ijobiy va salbiy ma'nolarga ega. Tildagi ijobiylik va salbiylik kishining ruhiy holatiga ta'sir qiladi. Baho predikati asosiy ma'noni ifodalaydi: yaxshi va yomon. Yaxshi va yomon bahoning ifodalanishi, asosan, sifatlar orqali namoyon bo'ladi.

Demak, baholash deganda subyektivning obyektga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini tushunish lozim. Shuni ta'kidlash joizki, erkalashning ifoda etilishida faqat ijobiy munosabat bo'lsa, baholashda xam salbiy, ham ijobiy hissiyotlar mavjud bo'ladi.

O'zbek tilida bolalarga nisbatan qo'llanuvchi murojaat birliklariga qo'shilib kelgan egalik affiksleri maxsus subyektiv baho ifodalovchi affiks bo'lmasa-da, so'zlovchi tomonidan ijobiy munosabat yuklanganligi sababli modal munosabat ifodalab keladi.

Bu o'rinda *gul-, malika-, g'uncha-, chiroq-, jon-, arslon-, qo'zi-* so'zlariga qo'shilgan *-im* egalik affikslerida so'zlovchining mehr-muhabbat bilan suyib erkalashi va ijobiy munosabatini anglash mumkin.

O'zbek va rus tillarida bolalarga oid murojaat birliklarida ijobiy va salbiy baho turli xil grammatik formalar (morfologik) va leksik, sintaktik vositalar bilan ifodalanganligini kuzatish mumkin.

Demak, murojaat birliklari – bu odamlarning bir-biriga munosabatini bildiradigan ijtimoiy shakldir. Murojaat birliklarida so'zlovchining psixologik holati va uning suhbatdoshiga bo'lgan his-tuyg'ulari aks etadi.

Mashhur shoir G'ofur G'ulomning “Sen yetim emassan” she'ri boshidan oxirigacha yetim bolalarni ruhiy tushkunlikka tushmasliklari uchun ularga murojaat katta magik qudratga ega jumla takroriga asoslanadi. She'rda Ulug' Vatan urushining ota-onasiz qolgan go'daklariga xitob, murojaat o'zbeklarga xos lingvomadaniy usulda bayon qilingan:

*Sen yetim emassan,
Tinchlan, jigarim.
Quyoshday mehribon
Vataning – onang.
Zaminday vazminu*

TILSHUNOSLIK

*Mehnatkash, mushfiq,
Istagan narsangni tayyorlaguvchi
Xalq bor – otang bor.
Cho'chima, jigarim,
O'z uyingdasi.
Bu yerda
Na g'urbat, na ofat, na g'am.
Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat
Va mehnat nonini ko'ramiz baham.
Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim ...*

Shoirning beshafqat urush sababli yetim qolgan, o'z uyidan, vatanidan ayrilib, begona yurtga kelgan bolalarga o'z his-tuyg'ularini *jigarim, qo'zim, yuragi, joni, go'dak farzandi* kabi murojaat birliklari orqali ifodalaydi, hamdardlik bildiradi.

Shoirning yetim bolalarga qo'llagan *jigarim, qo'zim, yuragi, joni, go'dak farzandi* kabi murojaatlari alohida kelganda ularning semantikasida u qadar modallik yoki emotsionallik ifodalanmasligi mumkin. Masalan, *jigar, qo'zi, yurak, jon* birliklariga grammatik formalar qo'shilmaganda, ularda subyektiv munosabat ifodalanmaydi. *-i, -(i)m* egalik qo'shimchalari so'zlovchi – shoirning obyektga ijobiy munosabatini, ruhiy kechinmalarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Shoir o'quvchi ko'z o'ngida "*murg'ak go'dak*" tasavvurini hosil qilar ekan, bu o'rinda u bolalarga nisbatan eng kuchli emotsional ta'sir kuchiga ega va o'ta yaqinlikni ifodalovchi "*jigarim*", "*qo'zim*" murojaat birliklarining tanlaganligi misralarni milliy-madaniy ifoda tomon buradi.

B.O'rinboyev ham murojaatda qo'llanuvchi *bolam, bo'tam, arslonim, bekam, jonim, oyim, chirog'im, qo'zim* kabi so'zlarga qo'shilgan egalik affikslari so'zlovchining asosiy stilistik maqsadi, ya'ni egalik ma'nosiga xususiy o'ttenka kiritish bilan nutqning emotsional-ekspressiv qiymatini oshiradi, deb hisoblaydi.

O'zbek tilida erkalash mazmunidagi bolalarga nisbatan qo'llanilgan murojaat birliklarida aksiologik baho, asosan, subyektiv baho ifodalovchi *-jon, -gina (-qina, -g'ina)* kabi qo'shimchalar qo'shilishi bilan ham hosil bo'ladi. Bu kabi qo'shimchalarni qo'shish orqali murojaat qilinganda, murojaat birliklari erkalash mazmunidan tashqari, "o'ziga yaqin olish" ma'nosini ham ifodalab keladi.

– *Shabnam, qizim-onam, tetik bo'li! Mana men, ko'rdingmi?! Qo'rqma, qizim-jonim! Men shu yerdaman-a?!*

Dorboz gap tashlaganda doira sasi tinadi. Otaning ovozi titrab ketadi. To'rt gaz balandlikdagi dor ustida, qizchani kaftini tutib turgan o'spirin qo'llarini oladi. Qizchani ovozi jaranglaydi:

– *Labbay, dada?*

– *Xudoga shukr! Ena qizim, men senga duo olib beray...*

– *Mayli, dada...*

– *Xaloyiq! Qildor ustida, qaldirg'och yo'lida yurayotgan Momo Havo avlodiga bir duo bering!...*

O'z tashvishi bilan yakkam-dukkam qadam tashlab o'tayotgan Chol dorni ko'rsa-da, bee'tibor ketayotgandi. U qildor ustidagi qizchani ko'rib qolgach, bir balodan uzoqlashmoqchiday qadamini tezlatgan bo'ldi. Ammo «duo»ni eshitib, yuk xaltasiga o'tirganicha beixtiyor tomoshabinga aylandi. Olomon duoga qo'l ochdi.

– *Shabnam, jigarim, ko'zim qorasi, boshingda nima bor?*

– *Toji davlat!*

O'spirin dorda turganicha unga «Bale!» deya jo'r bo'ldi.

– *Ko'zingda nima bor, nuri diydami?*

– *Nuri Muhammad!*

– *Bale!*

– *Tilingda nima bor?*

– *Kalima-i shahodat!*

- *Bale!*
- *Qulog'ingda nima bor, gulim?*
- *Azoni qiyomat!*
- *Bale!*
- *Balli, qizginam!*

So'ng ota-dorboz uzun duo o'qidi. (Eshqobil Vali. "Dorboz" hikoyasi // "Yoshlik" jurnali, 2013 yil, 2-son)

Birinchi misrada qo'llangan *shabnam*, *qizim-onam*, murojaat birligi so'zlovchi, ya'ni otaning qiziga yaqinligini va qadrililigini ko'rsatib kelgan bo'lsa, *qo'rqma qizim-jonim* murojaati esa yaqinlik va qadrilik darajasini oshirganligini sezish mumkin. *Ena qizim* tarzida qilingan murojaat *ona qizim* murojaatining dialektal ko'rinishi bo'lsa, *shabnam*, *jigarim*, *ko'zim qorasi* murojaat birliklari eng aziz farzand ma'nolarini, *nuri diydam*, *gulim*, *balli*, *qizginam* murojaat birliklariga *-(i)m*, egalik qo'shimchalarining qo'shilishi bilan erkalash ma'nolari kuchaytirilyapti. Matndagi *balli* undov so'zining *qizginam* murojaat birligi bilan qo'llanishi ijobiy ruhda so'zlovchi otaning farzandi hatti-harakatlaridan mamnunligini ifoda etmoqda.

Kuzatishlarimizga ko'ra, rus oila diskursida ota-ona yoki kattalar bolalarga murojaat qilganida bola ismi qisqartirilgan variantga ega bo'lmasa-da, uning ismi to'liq aytilmaydi.

Нюночка, пожалуйста, одолжи ножницы.

Игорек, подай плащ! (So'zlashuv nutqidan)

Murojaat ifodalanayotgan har ikki antroponimda erkalash va kichraytirish ma'nolari ifodalanganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, antroponim murojaatlar bolalar uchun signal vazifasini ham bajaradi va u so'zlovchi uni "o'ziniki" deb baholayotganiga ishora qiladi.

Rus tilida bolalarga nisbatan qo'llaniladigan murojaat birliklarida konnotativ ma'no ifodalovchi *-енок, (-онок), -ушка, (-юшка, -ешка), -ик* suffikslari mahsuldor qo'shimchalar bo'lib, ijobiy munosabatnigina ifodalab qolmay, so'zlovchi nutqiga o'ziga xos ekspressivlik bag'ishlaydi.

Rus tilida aksiologik baho asosan subyektiv baho ifodalovchi morfologik va leksik vositalar bilan ifodalanganini ko'rish mumkin. Erkalash mazmunidagi aksiologik baho *сладкий, любимый, милый, хороший, умный, дорогой* kabi sifatlar *мой* olmoshi bilan otlashgan sifat + yakka aniqlovchi vazifasidagi olmosh tipidagi yoyiq murojaat birliklari bilan ham ifodalanadi. Masalan:

Милый мой ребёнок,

Сладкий мой, родной,

Я хочу, чтоб был ты всегда со мной.

Я тебя люблю, сильно, больше всех,

Милый мой котёночек, родной мой человек,

Ты когда печалишься, грустно мне становится,

А когда ты плачешь, тоже плакать хочется,

Не переживай, мама тебя любит,

Вспомни об одном, что когда забудешь,

Вспомни ты о том, что я говорила,

Я тебя люблю, милый мой, любимый,

Не переживай, мама тебя любит и с тобою навеки будет! (Милый мой ребёнок!

Мария Ивановна Костяева <https://stihi.ru/avtor/mariya100>)

Bolalarga oid murojaat birliklarida ijobiy va salbiy bahoning ifodalanishi ko'proq so'zlovchi emotsiyasiga bog'liq bo'ladi. Rus muloqot diskursida ham baho anglatuvchi murojaat birliklarining katta guruhini metaforalar tashkil etadi. So'zlovchi yoki yozuvchi metafora orqali ifodalangan adresat – bolaga nisbatan ko'proq munosabat va emotsiyani ham qo'shib erkalashni ifodalaydi. Masalan, *ласточка, золото, сокровище, ангелочек, ягодка, солнышко, рыбочка, зайчик, ёжик, голубчик, котёнок* kabi ijobiy mazmundagi so'zlovchining bahosini va erkalashni ifodalovchi murojaatlar bor. Bu kabi murojaat birliklari metaforik xarakterga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ekspressiv va baholovchi mazmunga ega.

XULOSA

Til birliklarini maqsadga muvofiq tarzda qo'llash baho berish jarayonini osonlashtiradi va bahoni aks ettiruvchi leksemalar faollashuviga yordam beradi. Baholash so'zlarining mazmun

TILSHUNOSLIK

xususiyati va so'zlovchining psixologik o'ziga xosligi aksiologik modal ma'nolarning murakkabligidan va semantik ifodaga ega ekanidan dalolat beradi.

Bolalarga oid murojaat birliklari semantik jihatdan hissiy-emotsional holatga aloqador bo'lganligi va pragmatik vazifa bajarishi tufayli mental aksiologik modallik ifodalash xususiyatiga ega deyish mumkin. Shuningdek, voqelikni idrok etishning subyektiv, ammo psixologik jihatdan asosli tomonlarini aks ettiruvchi hissiy-baholovchi murojaatlar kundalik hayotdagi turli jihatlarni o'zida aks ettiradi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi aksiologik modallik ifodalovchi bolalarga oid murojaat birliklarida sotsiolingvistik, hissiy va uslubiy xususiyatlarning uyg'unligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Таривердиева М.А. Семантика модальных глаголов и их роль в предложении-высказывании // Филологические науки. – М., 1987. – С.53-59.
2. Palmer F.R. Mood and modality / F.R. Palmer. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P.240-243.
3. Oxford Advanced Learner's Dictionary. <http://oxfordlearnersdictionaries.com>.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 237 с.
5. Бойматова Д.Б. Ундалмали гапларда ифодаланган аксиологик модалликнинг прагматик ва семантиквализаси.
4. Гиясова, В. (2023). ОСОБЕННОСТИ КОМПОЗИЦИИ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗОК. Science and innovation in the education system, 2(5), 125-129
5. Авазовна, Г. В. (2022). THE SOCIOLINGUISTIC NATURE OF THE ADDRESS. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(7), 81-86.
6. Авазовна, Г. В. (2021). Классификация сказок о животных по их структурносемантическому признаку. Преподавание языка и литературы, 1(8), 74-77.
7. Гиясова, В. (2023). ОСОБЕННОСТИ КОМПОЗИЦИИ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗОК. Science and innovation in the education system, 2(5), 125-129.
8. GIYOSOVA, V. (2019). Functioning of fairy-tale as one of the variety of folklore text in oral folk art. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 124-126.
9. Akbarova, Z. A., & qizi Giyosova, V. A. (2023). Extralinguistic Means Of Expressing Appeal In The Uzbek Language. Texas Journal of Philology, Culture and History, 17, 9-13.
10. Гиёсова, В. А. (2022). КОНЦЕПТ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ. ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI, 2(28), 161-166.
11. Гиёсова, В. А. (2022). ТОТЕМИСТИЧЕСКОЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ СКАЗОК О ЖИВОТНЫХ. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(1), 133-139.
12. Giyosova, V. A. (2023, October). FORMATION OF THE DICTIONARY OF PRESCHOOLCHILDREN. In International Conference on Multidisciplinary Research (Vol. 1, No. 6, pp. 103-105).
13. Giyosova V. SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF REFERENCE UNITS. Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali. 2023 Feb 25(1):512-6.
14. Giasova, V. A. (2024). HISTORY OF ADDRESS IN THE RUSSIAN LANGUAGE. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(4), 7-12.
15. Giyosova, V. (2023). GLYUTTONIMLAR BILAN IFODALANGAN BOLALARGA OID MUROJAAT BIRLIKLARI. Scientific journal of the Fergana State University, (6), 163-163.
16. Giyosova, V. (2022). BOLALARGA OID MUROJAAT BIRLIKLARIGA DOIR MULOHAZALAR. Scientific journal of the Fergana State University, (3), 36-36.
17. Giyosova, V. (2023). MUROJAAT BIRLIKLARINING IJTIMOY-LISONIY TAHLILI. Farg'ona davlat universiteti, (1), 106-106.
18. Giyosova, V. (2024). REFERENCE UNITS FOR CHILDREN WITH GLUTENOMIES. Farg'ona davlat universiteti, (3), 324-324.
19. Giyosova VA. FORMATION OF THE DICTIONARY OF PRESCHOOL CHILDREN. In International Conference on Multidisciplinary Research 2023 (Vol. 1, No. 6, pp. 103-105).
20. Гиёсова, В. А. (2024). ОБ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ТЕРМИНА ОБРАЩЕНИЕ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(6), 13-17.